“O’zkimyosanoatloyiha” AJda sayyor qabul tashkil etildi

// 30.09.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoatloyiha-ajda-sayyor-qabul-tashkil-etildi

2024-yilning 27-sentabr kuni “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi Muhammadbobur Abdurazakov hamda “O’zkimyosanoatloyiha” AJ yoshlari bilan Jamiyatda sayyor qabul tashkil etildi.

Sayyor qabulda Jamiyat faoliyatida yoshlarning o‘rni haqida alohida ta’kidlab o‘tildi. Ular uchun munosib sharoitlarni yaratish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, salohiyatli xodimlarning malaka va tajribasini oshirish maqsadida yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumotlar berildi.

Ishchi-xodimlar sayyor qabul davomida o‘zlarini qiziqtirgan barcha savollarga batafsil javob olishdi va “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi tomonidan bugungi bo’lib o’tgan sayyor qabul bo’yicha “Yo’l xarita”sini ishlab chiqish topshirig’I berildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati